


SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)






Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



Xususiy korxonona birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra)

birlik





o'tgan yilga nisbatan % da



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(yanvar-dekabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar-dekabr oylarida, 4 316 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 2 674 ta, oilaviy korxonalar - 867 ta, xususiy korxonalar - 492 ta, muassasalar - 175 ta va boshqalar - 108 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 6 328 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 504 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 847 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 447 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 867 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 324 taga yoki 0,7 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 14 459 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 541 taga yoki 21,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 792 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 411 taga yoki 22,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 674 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 215 taga yoki 9,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 644 tani tashkil etib, ulardan 626 tasi yoki 97,2 % faoliyat ko'rsatmoqda.


Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda ro'yxatdan o'tgani 61 taga yoki 10,5 % ga, faoliyat ko'rsatayotgani 60 taga yoki 10,6 % ga ortganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida, viloyatimizda 81 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

11



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
Jami	5 537	7 502	9 336	11 381	13 972
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	599	813	1 279	1 638	2 151
sanoat	900	1 204	1 477	1 803	1 954
qurilish	947	1 335	1 533	1 785	2 091
savdo	1 609	2 297	2 908	3 648	4 612
tashish va saqlash	493	571	633	648	703
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	217	298	353	430	517
axborot va aloqa	79	100	113	144	188
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	64	91	118	158	192
boshqa turlar	629	793	922	1 127	1 384

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
Jami	172	350	425	566	626
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	52	88	107	126	127
sanoat	46	96	118	136	135
qurilish	10	19	22	35	44
savdo	37	98	130	208	244
tashish va saqlash	8	7	7	10	13
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	18	16	21	25
axborot va aloqa	1	2	2	2	2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	4	5	7	8
boshqa turlar	11	18	18	21	28

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Surxondaryo viloyati	626	147	479
Termiz sh.	366	37	329
tumanlar:			
Oltinsoy	6	5	1
Angor	21	6	15
Bandixon	4	2	2
Boysun	9	5	4
Muzrabot	16	6	10
Denov	22	11	11
Jarqo'rg'on	13	7	6
Qumqo'rg'on	15	7	8
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	21	11	10
Termiz	51	15	36
Uzun	42	20	22
Sherobod	13	6	7
Sho'rchi	17	8	9

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 33 122 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,1 %), Denov (11,6 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (6,9 %), Qumqo'rg'on (6,8 %), Sherobod (6,8 %), Termiz (6,4 %), Sariosiyo (5,3 %), Uzun (5,2 %), Angor (4,8 %), Boysun (4,7 %), Qiziriq (4,7 %), Muzrabot (4,6 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (2,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 4 316 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda ularning Termiz sh. (16,6 %), Denov (11,2 %), Sherobod (8,4 %), Jarqo'rg'on (7,5 %), Qumqo'rg'on (6,6 %), Sho'rchi (6,4 %), Sariosiyo (5,6 %), Boysun (5,5 %), Angor (5,5 %), Muzrabot (5,0 %), Termiz (4,7 %), Uzun (4,6 %), Oltinsoy (4,6 %), Qiziriq (3,9 %) va Bandixon (3,9 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 792 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (25,3 %), Denov (9,8 %), Termiz (8,4 %), Jarqo'rg'on (7,3 %), Sherobod (6,9 %), Qumqo'rg'on (5,9 %), Sho'rchi (5,6 %), Boysun (4,9 %), Angor (4,8 %), Qiziriq (4,4 %), Muzrabot (4,3 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,4 %) va Bandixon (2,3 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




2022- yil yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 867 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Denov (12,1 %), Oltinsoy (10,8 %), Boysun (10,0 %), Sariosiyo (8,4 %), Termiz sh. (7,8 %), Sherobod (6,6 %), Qiziriq (6,3 %), Jarqo'rg'on (6,1 %), Angor (5,0 %), Muzrabot (5,0 %), Uzun (4,9 %), Bandixon (4,9 %), Sho'rchi (4,5 %), Termiz (3,9 %) va Qumqo'rg'on (3,7 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The header features the national emblem, the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI', and the 'UZSTAT' logo. A navigation menu includes 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is titled 'INTERAKTIV XIZMATLAR / KTYaDR ma'lumotlari'. A dropdown menu is open, listing services: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqqim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a form for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code). The form includes a field for 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from image) and a 'Qidiruv' (Search) button. The left sidebar contains 'RASMIY STATISTIKA' with links to 'E'lon qilish taqvimini', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'. The right sidebar contains 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' with links to 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-revizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**